



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI FAOLIYATIDA IJTIMOIIY INTELEKTNING AHAMIYATI

Odilova Dildora Rustam qizi

Buxoro psixologiya va xorajiy tillar instituti 2-kurs magistri

Odilovadildora25@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14948773>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- Fevral 2025 yil

Ma'qullandi: 25- Fevral 2025 yil

Nashr qilindi: 28-Fevral 2025 yil

KEY WORDS

Psixologiya, kasbiy mahorat, ijtimoiy intellekt, maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarbiyachi, muloqot, itimoiy intellekt.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ijtimoiy intellekt tushunchasi, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida ijtimoiy intellektning ahamiyati to'g'risida ma'lumot berildi.

Ijtimoiy intellekt - bu insonga boshqalar bilan muvaffaqiyatli munosabatda bo'lishga yordam beradigan bilim, ko'nikma va qobiliyatdir. O'zimiz va boshqalarning xatti-harakatlarini tushunish, vaziyatga qarab harakat qilish qobiliyati shular jumlasidandir. Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi, psixologiya fanlari doktori Dmitriy Ushakovning yozishicha, zamonaviy dunyoda mehnat taqsimoti kuchayib bormoqda va shuning uchun individual yutuqlar tobora jamoaviylikka aylanib bormoqda. Muvaffaqiyatga erishish uchun esa, bugungi kunda o'z sohangizning professional bo'lishning o'zi yetarli emas. Shuningdek, siz odamlar bilan munosabatlarni yaxshilash, o'zingiz g'oyalar yaratish, ularni jamiyatda targ'ib qila olishingiz kerak. Misol uchun, takliflarni ilgari surishdan qo'rqmang va murakkab narsalarni oddiy so'zlar bilan tushuntirishni o'rganing.

Ijtimoiy intellektda intuitsiya va shaxsiy sifatlar asosiy rolni o'ynaydi. Aslida, ijtimoiy intellekt insonning odamlarni va kundalik vaziyatlarni qanchalik tushunishining ko'rsatkichi hisoblanadi. Odatiy hayotda bunday ko'nikmalarni xushmuomalalik va sog'lom fikrlash deb atashadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, ijtimoiy intellekt yuqori aqliy daraja bilan o'lchanmaydi. Bunga misol qilib esa, Sherlok Holmesni yoki "The big bang theory" serialidagi bosh qahramon Sheldonni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, Sheldon aqliy darajasi eng yuqori insonlardan biri deb hisoblangan bo'lsa-da, uning ijtimoiy intellekti past deyiladi. Shu sababdan ham u atrofdagilarning tuyg'ularini to'g'ri baholay olmaydi va buning ortidan do'stlari hamda hamkasblari bilan til topishga qiynaladi.

Ushbu muammo G.M.Andreyeva tadqiqotlarida shaxs xarakteridagi motivatsiyalarning shakllanishi va amalga oshirilishi, shuningdek, o'zaro hamkorlikka intilishi nuqtai nazaridan asoslab beriladi. Bunda asosan, quyidagi ikki jihat asosida tarkib topuvchi shaxs xususiyatlarining qaror toptirilishi sotsial intellekt vositasi sifatida tadqiq qilinadi va asoslab beriladi. Chunonchi, sotsial intellekt rivojlanishining birinchi omili, shaxsning insonlar bilan

oʻzaro munosabatga qobiliyatliligi, yuqori darajada muloqot-mandligi bilan bogʻlansa, ikkinchidan, suhbatdoshning xulq-atvori, xatti-harakatlari, kechinmalariga nisbatan sezuvchanlik qobiliyati va turli xil vaziyatlarga moslashuvchanlik qobiliyatlardan iborat ekanligi qayd etiladi.

Intellektni tarkib topishi va shakllanishi boʻyicha 8 ta asosiy yondashuvlar mavjuddir:

1. Intellektga fenomenologik yondashuv: intellekt ong mazmunining asosiy shaklli sifatida qaraladi (V.Keller; K.Dunker; M. Vertgeymer; Dj.Kempion va boshqalar).

2. Intellektga genetik yondashuv: intellekt insonning tashqi olam bilan oʻzaro taʼsirlashuvining tabiiy sharoitidagi oʻrab turgan muhit talablariga qiyin moslashuvi oqibati sifatida qaraladi (U.R.Charlzvort; J.Piaje).

3. Intellektga sostio-madaniy yondashuv: intellekt insonning ijtimoiylashuvi, shuningdek, madaniyatning maqsadli taʼsiri natijasi (Dj. Brunner; L.Levi-Bryul; A.R.Luriya; L.S.Vigotskiy va boshqalar.).

4. Intellektga jarayonli - faoliyatli yondashuv: intellekt inson faoliyatining asos shakli sifatida (S.L.Rubenshteyn; A.V.Brushlinskiy, L.A.Venger; K.A.Abulxanskaya-Slavskaya va boshqalar.).

5. Intellektga talimi yondashuv: intellekt maqsadga yoʻnaltirilgan taʼlimining mahsuli sifatida qaraladi (A.Staats; K.Fisher; R.Feyershteyn va boshqalar).

6. Intellektga axborot yondashuvi: intellekt axborotlarni qayta ishlashning elementar jarayonlari majmui sifatida (G.Ayzenk; E.Xant; R.Shternberg va boshqalar).

7. Intellektning funksional-darajaviy yondashuvi: intellekt har xil darajadagi bilish jarayonlarining tizimi sifatida (B.G.Ananay; E.I.Stepanova; B.M.Velichkovskiy va boshqalar)

8. Intellektning regulatsion yondashuvi: intellekt psixik faollikni oʻzini oʻzi regulatsiya qilish omili sifatida (L.L.Terstoun va boshqalar).

Bizning maqsadimiz intellektning umumiy yondashuvlari tabiatiga xos jihatlarni va ular borasidagi ilgari surilgan ilmiy gʻoyalarni chuqur tahliliga emas, balki intellektning umumiy psixologik tabiatini yoritish uning maktabgacha tashkilot tarbiyachilari faoliyatida nomoyon boʻlishi va uni rivojlantirish asoslarini oʻzida aks ettirishidan iborat deyiladi "Maktabgacha taʼlim tashkilotlari tarbiyachilarida sotsial intellekt omilining namoyon etilishi va rivojlanishi" nomli maqolada biz ham ushbu fikrga tayanib oʻz qarashlarimizni bayon etgan holda sotsial intellektni tarbiyachi faoliyatida nechogʻlik ahamiyat kasb etishini yoritishga harakat qildik.

Tarbiyachi faoliyatida sotsial intellektning roli va ahamiyatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etuvchi, sotsial intellekt omillarini ilmiy jihatdan toʻgʻri tanlash, tushunish va tadqiq qilish jarayoni tarbiyachi va uning kasbiy faoliyati taraqqiyotidagi ijtimoiy-psixologik uygʻunlikni taʼminlash uchun zarur boʻlgan ilmiy-amaliy tadbirlar koʻlamini ishlab chiqish imkonini beradi. Buning uchun esa, dastavval, sotsial intellekt omillari va mezonlari koʻlamini belgilash va ularning har birini chuqur oʻrganish uchun tegishli usullarini yoki uslublarni tanlash va ishlab chiqishga toʻgʻri keladi. Ijtimoiy intellekt tarbiyachini oʻzini, xulq-atvorini, hamda bolalarning xatti-harakatlarini tushunish va samarali oʻzaro munosabatlarni oʻrnatish, maqsadlarga erishish qobiliyatini rivojlantirishni oʻz ichiga oladi. Ushbu qobiliyatni rivojlantirish orqali bolalarni yaxshi tushunish bilan birga, ular bilan yaxshi aloqalar oʻrnatish hamda tashkilotda, jamiyatda oʻz oʻrnini topgan holda, maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishiga zamin boʻladi. Sotsial intellekt har bir shaxsdagi faoliyat jarayonida sodir boʻluvchi xulq-atvor belgilari muvofiqlashtiriladigan va bir-biriga yaqinlashtirib

«tenglashtiriladigan» jarayonlarining kechishi bilan bevosita bog'liq.

Intellektlar majmuasi ma'lum ijtimoiy tabaqalardan hosil bo'ladi: olimlar, ijodkorlar, muxandislar, boshqaruvchilar va hokozolar. Bular noosferani ijodkor qatlamini tashkil qiladi. Sotsial intellektni ifoda qilish uchun oxirgi vaqtlarda «ijtimoiy kognitologiya» tushunchasidan keng foydalanmoqdalar. sotsial intellekt – bu insonning kechinmalari, niyati va emosional holatlarini so'zlari va xatti-harakatlari orqali tushunish qobiliyati. Sotsial intellekt – shuningdek, insonning shaxslararo munosabat natijalarini oldinda ko'ra olish xususiyati hamdir. Ijtimoiy intellekt insonlar haqida tez mulohazalab, ularning xatti-harakatlari yuzasidan tezkor munosabat bildirga olish qobiliyati bilan ham bog'liq. Bu «ijtimoiy inoyat etilgan» xususiyat bo'lib, ijtimoiy munosabatlarga moslashishni ta'minlash uchun insonlar bilan munosabatni tekis ketishini ta'minlaydi R.Shternberg (1981) tadqiqotlar o'tkazib, ijtimoiy intellekt tushunchasiga quyidagilar kirishini ko'rsatib o'tgan:

1. Amaliy masalalarni hal qilish qobiliyati. Odam mantiqiy fikr yuritadi, muammoning barcha tomonlarini ko'ra biladi, to'g'ri yechimga kela oladi, zarur

axborotlarning original manbalariga murojaat etadi, barcha dalillarni eshitadi.

2. Verbal qobiliyat. Aniq va ravon tilda gapiradi, o'qiganini yaxshi tushunish, lug'at boyligi kuchli va yaxshi, yozma nutqida muammolarga duch kelmaydi; odamlar bilan oson va samimiy muomalaga kirishadi va hokazo.

3. Ijtimoiy kompetentlik. Boshqa odamlar qanday bo'lsalar, shundayligicha qabul qiladi; uchrashuvlarga kechikmaydi; to'g'ri xulosa va qarorlarga kela oladi; boshqalarning xohish va extiyojlarini seza biladi; qiziquvchan va hokazo. Ijtimoiy intellektni juda ko'p hollarda donolik deb biladilar.

E.Torndayk ijtimoiy intellektni oddiy intellektdan farqli deya ta'kidlagan. Ko'plab mualliflar ijtimoiy intellektni akademik va formal intellekt qobiliyatlaridan farq qiluvchi mental qobiliyatlarning mustaqil guruhi sifatida tavsiflaydilar. Ijtimoiy intellektning funksiyalari quyidagilardan iborat:

1) O'zgaruvchan sharoitlarda adekvatlikni va moslashuvchanlikni taminlashi;

2) Taktik va strategik yo'nalishlarda o'zaro muvaffaqiyatli mutanosiblik dasturlari va rejalarini shakllanishi, joriy masalalarni hal qilish;

3) Shaxslararo munosabatlardagi voqealarni rejalashtirish va ularni rivojlanishini prognoz qilish;

4) Motivasion funksiya;

5) Ijtimoiy raqobatbardoshlikni kengaytirish;

6) O'z-o'zini shakllantirish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'ziga saboq berish.

Ijtimoiy intellektning asosiy vazifalaridan biri uzoq muddatli o'zaro munosabatlarni shakllantirishdir. O'zaro munosabatlarning darajasi va xarakterini

tushungan holda kelajakda bir-biriga ijobiy ta'sir o'tkazish va munosabatlarni mustahkamlashdan iboratdir.

Sotsial intellekt muayyan vaqt uchun asab-psixik holatni, ijtimoiy muhit omillarini va ijtimoiy munosabatlarning qanchalar muvaffaqiyatliligini aniqlaydi, shuningdek, uni energiya konsunerasiyasini talab qiluvchi, emosional zo'riqish, stress noqulayliklari, favqulodda holatlarda hamda shaxs inqirozi holatlarida saqlash imkoniyatini beradi. Sotsial intellektning favqulotda yuz beradigan inqirozlar, uzoq cho'ziladigan stresslar, o'z-o'ziga bo'lgan hurmatni tushunib yetishi holatlarida yordam beruvchi mobilizasion funksiyasi juda muhim

hisoblanadi. Ijtimoiy intellekt insonlar o'rtasidagi munosabatlarda sodir bo'ladigan hodisalarni prognoz qilish va ularga tayyor turish imkoniyatini beradi hamda psixologik zo'riqlashlarga bo'lgan bardoshni mustahkamlaydi.

Tarbiyachining ijtimoiy intellekti uning ta'lim jarayonining boshqa sub'ektlari bilan ijtimoiy va kommunikativ o'zaro munosabatlarining yetarliligi va muvaffaqiyati darajasini belgilaydi. An'anaga ko'ra, ijtimoiy intellekt "qobiliyat" tushunchasi orqali aniqlanadi. Bizning tushunishimizcha, tarbiyachining ijtimoiy intellekti ta'lim jarayonidagi ijtimoiy va kommunikativ vazifalarni "hal qiluvchi" omildir. Ko'rib turganimizdek, bular ijtimoiy-kommunikativ vaziyatni izlash, uni aniqlash, tushunish, uning rivojlanishining oqibatlarini bashorat qilish, unga ta'sir qilish va uni maqsadga muvofiq o'zgartirish yoki yaratish vazifalari. Bu vazifalarning barchasi, jumladan, ta'lim jarayonida ijtimoiy va kommunikativ muammolarni hal qilishni ta'minlaydigan maxsus vositalar - ijtimoiy qobiliyatlarni talab qiladi. Tarbiyachining ijtimoiy faolligi uning ijtimoiy aloqalarga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy va kommunikativ vaziyatlarni topish yoki ularni yaratish vazifasini ta'minlaydi. Tarbiyachining ijtimoiy faolligi darajasi olingan ijtimoiy tajribaning miqdori va sifatini belgilaydi. Tarbiyachining ijtimoiy plastikligi - bu ijtimoiy aloqalarga kirishning qulaylik darajasi, muloqot dasturlari to'plamining kengligi. Ijtimoiy plastika tarbiyachining ijtimoiy intellektining zaruriy sharti sifatida ijtimoiy va kognitiv moslashuvchanlik kabi xususiyatni shakllantirish shartidir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kuchli globallashuv davrida

axborot oqimi va iformatsion stresslar jarayonida hissiy-emotsional balansni saqlab turishda va insonning jamiyatga moslashib borishida sotsial intellektning o'rne muhimdir. Shuni aytish joizki har bir sohada sotsial intellektning ahamiyati muhimligini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotchilarining hayoti va ish faoliyatlarida, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar bilan ishlash jarayonida ijtimoiy intellektning o'rne muhim ahamiyatga ekanligini, bolalarni bolalarcha tushuna olish, ular bilan doimiy iliq munosabat o'rtana olish, ularni tushunish, bolalarni imkoniyatlarini, psixologik xususiyatlarini aniq ko'ra olish, shu bilan birga o'zaro munosabat o'rnata olishda ijobiy natija berishini ta'kidlashimiz joizdir, hamda tarbiyachilarni ijtimoiy intellektining shakllantirilishi faoliyatda ijobiy samaradorlikka erishishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usarboyeva D. Talabalarining akademik mobilligini shakllantirish mexanizmlari //Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 74-77.
2. Абдурасулов, Ж. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХТЕХНОЛОГИЙ В УСВОЕНИИ УРОКОВ ИСТОРИИ.
3. Abduqodirova, D., & Abdurasulov, J. (2025). YOSHLARDA HARBIY-VATANPARVARLIK TUYG'USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(1), 50-53. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/42882>
4. Жўраев , Ш. ., & Абдурасулов , Ж. (2024). ҲАРБИЙ ЖАМОАДАГИ ИЖТИМОИЙ ФИКР. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 1(2), 97-103. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yoitj/article/view/28151>
5. Abdurasulov J., & Pardabayeva , M. (2024). MUSOBAQADAN OLDIN SPORTCHILARNI

PSIXOLOGIK TAYYORLASH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(6 Part 2), 73–76. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/ejsspc/article/view/34717>

6. Yuldasheva, S. (2025). PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY TAYYORGARLIK DARAJASINI BELGILOVCHI XUSUSIYATLAR. В YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI (Т. 3, Выпуск 2, сс. 37–42). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14870151>

7. Burxanova, M. (2025). INSON SHAXSINI TARBIYALASHDA OILA MUHITINI O'RNI. В YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI (Т. 3, Выпуск 2, сс. 43–47). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14870194>

8. Mirkosimova, X. (2025). BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITUVCHI-O'QUVCHI MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI. В YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI (Т. 3, Выпуск 2, сс. 48–53). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14870210>

9. Абдусаматова, Ш. (2025). РОЛЬ МНЕНИЕ УМА В ТОЛЕРАНТНОЙ ЛИЧНОСТИ. В YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI (Т. 3, Выпуск 2, сс. 54–59). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14870265>

10. Tursunov, A. (2025). VOLEYBOL MASHG'ULOTLARINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH. В YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI (Т. 3, Выпуск 2, сс. 60–63). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14870322>

11. Abduqodirova, D. (2025). TALABALARDA PSIXOLOGIK STRESSNI YENGISH. В YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI (Т. 3, Выпуск 2, сс. 69–73). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14870413>

12. Tojiboyev, M. (2025). PEDAGOGIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH VOSITASIDA TALABALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA TAYYORLASH. В YANGI O'ZBEKISTON PEDAGOGLARI AXBOROTNOMASI (Т. 3, Выпуск 2, сс. 85–88). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14870506>

13. Абдусаматова, Ш. С. (2024). Роль психологии в формировании толерантности у студентов. IMRAS, 7(7), 39-43.

14. Abdusamatova, S. S. (2024). Tolerantlikning shaxsiy omillari. Inter education & global study, (5 (1)), 487-489.

15. Abdusamatova, S. S., & Sultonqulova, G. F. (2023). Ehtiyojlar va faoliyatning o'zaro bog'liqligi. Евразийский журнал академических исследований, 3(3 Part 3), 65-69.

16. Abdusamatova, S. (2023). Description of modern concepts of emotional intelligence. Science and innovation, 2(B11), 524-529.

17. Abdusamatova, S. (2023). Mechanism of innovation in the field of lifelong education. Science and innovation, 2(B1), 341-344.

18. Abdusamatova, S. (2023). Some aspects of self-development and self-knowledge, and effective assessment methods. Science and innovation, 2(B5), 420-423.

19. Abduolimovich, N.F. 2024. Modern Model of Scientific Activity of Students in the Field of Physical Culture Education. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. 4, 2 (Feb. 2024), 218–221.

20. Raximova, X. 2025. MEDIA TA'LIM METODLARI ORQALI TALABALARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH MEXANIZMLARINING NAZARIY ASOSLARI. Журнал

академических исследований нового Узбекистана. 2, 2 (фев. 2025), 24–28.

21. Khudayberdiyev Oybek Gafurovich. (2024). STRUCTURE AND SYSTEM OF TEACHING THE SCIENCE OF "EDUCATION" BASED ON THE PROJECT METHOD. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(05). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/1527>

